

UO'K: 37.018.26:502:37.03(575.1)

EKOLOGIK MADANIYAT, TA'LIM-TARBIYA BERISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**Erkin Bakitovich Aydarov***Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***Umida Ataqulova***Chirchiq davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Tabiat bilan insoniyat orasidagi munosabat keskinlashdi. Tabiatga inson ta'sirida sodir bo'ladigan xavfli o'zgarishlar inson faoliyatiga ham kuchli ta'sir etmoqda. Bu xodisalardan himoyalanihi shu kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu muammo ayniqsa, kelajak avlod bo'lgan, maktab o'quvchi-yoshlari uchun ham dolzarb masaladir. Uzluksiz ta'lim jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarni berish sohasidagi mutaxassislarning foydalanishlariga mo'ljallangan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, ekologik ta'lim-tarbiya, toza hudud, qadriyat, ommaviy.*

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ, ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: *Обострились отношения между природой и человечеством. Опасные изменения, происходящие под воздействием человека на природу, также сильно влияют на деятельность человека. Защита от этих событий главная задача этого дня. Эта проблема особенно актуальна для будущих поколений школьников. Предназначен для использования специалистами в области предоставления научно-педагогических основ развития экологической культуры в процессе непрерывного образования.*

Ключевые слова и понятия: *образование, экологическое образование, чистая территория, ценность, общественность.*

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL CULTURE, EDUCATION

Annotation: *The relations between nature and humanity have become strained. Dangerous changes occurring under human influence on nature also strongly affect human activity. Protection from these events is the main task of this day. This problem is especially relevant for future generations of schoolchildren. It is intended for use by specialists in the field of providing scientific and pedagogical foundations for the development of ecological culture in the process of continuing education.*

Key words: *education, environmental education, clean territory, value, public.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Ta’lim-tarbiya sohasida ham belgilanayotgan islohotlarni hayotga tatbiq qilishda va keyingi yillarda to‘plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarur”, deb bejiz aytmagan¹⁷.

Yuqorida qayd etilgan milliy davlat tizimini modernizatsiya qilish talablari hamma fan yo‘nalishlari, jumladan ekologik tarbiya tizimini qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Chunki milliy ekologik ta’lim va tarbiya tizimi shu kunning talablariga to‘liq javob beradi, deya olmaydi.

Ekologik tarbiya, targ‘ibot va ta’limni, shuningdek, tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining markaziy apparatlarida chiqindilarning hosil bo‘lishi, ularni to‘plash, saqlash, tashib ketish, utilitatsiya qilish, qayta ishlash, ko‘mish va realizatsiya qilish bo‘yicha na‘zorat inspeksiyalari;

Bugun insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatlari oqibatlariga guvoh bo‘lib turibmiz. Dunyoning bir burchida suv toshqinlari, zilzilalar ro‘y berayotgan bo‘lsa, boshqa joyida o‘rmon yong‘inlari kuzatilyapti. Bu kabi global muammolar tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish natijasida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida avj ola boshlagan edi. Qayd etish joizki, uzoq yillar mobaynida tabiatga yetkazilgan ta’sir oqibatida tabiiy muvozanatga putur (yetkazildi) yetdi. Bugungi kunga kelib esa, insoniyat tamadduni, uning ertangi taqdiri aynan shunday masalalarni hal etishni taqozo qilmoqda. Ayni chog‘da ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa’y-harakatlar ularni hal etishda etarli emasligini ko‘rsatmoqda.

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik tarbiyaga bo‘lgan munosabatni zamon talablariga mos bo‘lishi, tabiat ne‘matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta’sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda ekologik ta’lim-tarbiyaning ahamiyati nihoyatda yuqori. Zero, ekologik ta’lim-tarbiya tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash hamda tabiiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ekologik ta’lim-tarbiya berishda yoshlarni tabiatdan ongli ravishda foydalanish va ularning qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish, hamda tejamkorlikka o‘rgatishda qo‘l keladi. Albatta, yosh avlod qalbida tabiatga nisbatan hurmat hissini shakllantirish va rivojlantirish muhim masalalardan sanaladi.

Bu, o‘z navbatida, pedagog kadrlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha jabhalar qatorida ekologiya va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida to‘laqonli huquqiy-me’yoriy baza yaratildi.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli [farmoni](#)

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktyabrdagi 3956-sonli qarori tasdiqlandi¹⁸.

Ushbu qarorda ko'p qavatli uylarda yashovchi aholi sonidan kelib chiqib, chiqindi yig'ish maydonchalarini namunaviy loyihalar asosida optimal tashkil etish, chiqindi tashish maxsus texnikalari xaridini ko'paytirib, qishloq aholisini sanitar-tozalash xizmatlari bilan bosqichma-bosqich qamrab olish, davlat-xususiy sheriklik prinsipi asosida "Toza hudud" unitar korxonalari buyurtmasiga ko'ra sohada tadbirkorlar ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari nazarda tutiladi. Maishiy chiqindilarni qayta ishlash haqida so'z borar ekan, ekologik tarbiya uning asosi sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va uni joriy etish zarurligini ta'kidladi va keng qamrovli davlat siyosati miqiyosida qaror ijrosiga bag'ishlangan dastur doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida Orol muammolari, uning atrofidagi ekologik tashvishli holat haqida o'z fikrlarini bayon etar ekanlar, bu faqat O'zbekiston uchun emas, balki butun dunyo uchun katta talofat ekanligini izohlab berdilar¹⁹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqan holda, davlat siyosati miqiyosida tabiiy xududlarni muhofaza qilish orqali, yoshlarga ekologik tarbiya berish haqida bir qancha qarorlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi B.Qo'chqorovning «2013 — 2017-yillarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar dasturining²⁰ ijro etilish holati to'g'risida»gi axborotini eshitib shuni ta'kidlaydiki, mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi keng qamrovli vazifalar ijrosiga bag'ishlangan dastur doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2018-yil 27-iyuldagi 1856-III-sonli qarori tasdiqlandi²¹. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tizimi xodimlarining formal kiyimi va farqlash belgilari namunalarini tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-sentyabrdagi 737-sonli qarori tasdiqlandi²². Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy-tadqiqot bazasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-noyabrdagi 958-sonli qarori tasdiqlandi²³.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi xodimlari mehnatini rag'batlantirishning samarali tizimini joriy etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi 12-sonli qarori tasdiqlandi²⁴.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrdagi PQ-3956-son [qarori](#).

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri N. ISMOILOV Toshkent sh., 2018-yil 27-iyul, 1856-III-son.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri N. Toshkent sh., 2018-yil 27-iyul, 1855-III-son.

²² O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2018-yil 18-sentabr, 737-son.

²³ O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2018-yil 26-noyabr, 958-son.

²⁴ O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2019-yil 9-yanvar, 12-son.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-sonli qarori tasdiqlandi²⁵.

Ta'kidlash joizki, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'qitishning majburiyligini ta'minlash mustahkamlab qo'yilgan²⁶. Shubhasiz, tabiatning musaffoligiga erishish va ekologik tarbiya berish muammolarning (yaxshilanishda) oldini olishda aholining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O'zbekistonda barqaror rivojlanish uchun ta'lim bo'yicha BMT o'n yilga mo'ljallangan (2005-2014-yillar) doirasida izchil ishlar olib borilmoqda. 2005-yilda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qo'shma qaroriga asosan, "Respublikada ekologik ta'limni rivojlantirish va ekolog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish istiqbollari" dasturi va konsepsiyasi qabul qilingani ana shunday sa'y-harakatlar samarasidir²⁷. Lekin ekologik xavfsizlik va ekologik tarbiyaga alohida e'tibor qaratilayotgan bir paytda ekologik tarbiya tushunchasining mag'zini hamma ham birdek anglab etayotgani yo'q. Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalarini ongli ravishda hal etish uchun oila, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalarda tabiatga mehr-muhabbat ruhini shakllantirish, ekologiyaga oid bilimlarni ular Shuuriga singdirish muhim muammo hisoblanadi.

Bu kelajakda ekologik tarbiya oladigan va tabiatdan oqilona foydalanadigan avlodni shakllantirishning muhim shartidir. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod tabiat haqidagi bilimlarni egallab, tevarakning nozikligini, uning go'zalliklarini qalban his qila olsagina, ona-Vatanga, uning tabiatiga muhabbati oshadi. Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish jarayonida o'quvchilar ongini hozirgi ekologik muammolar mohiyatini ochib beruvchi bilimlar bilan boyitish va Shu bilimlarni ularning amaliy faoliyati, ijtimoiy mehnati bilan mustahkamlab borish maqsadga muvofiq. Bunday mas'uliyatli vazifani hal qilish uchun o'qituvchidan shu soha bo'yicha chuqur bilimga, pedagogik mahoratga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lish, shuningdek, tinimsiz izlanish, o'rganish talab qilinadi. Bu borada o'quv muassasalarida "Ekologik markaz", "Ekologik to'garak"larni tashkil qilish, muntazam ravishda ekofestivallar yoki tanlovlar o'tkazib turish, o'quv-metodik qo'llanmalar, darsliklar, ko'rgazmali materiallarni nashr etish yaxshi samara berishi, shubhasiz. Ekologik ta'lim-tarbiyani yuzaga keltiruvchi maskanlardan yana biri, bu-mahalla. Darhaqiqat, xalqimizda tabiatga bo'lgan ehtirom tarix kabi ko'hnadir.

Shu ma'noda, azaliy qadriyatlarimizdan bo'lmish umumxalq hasharlarini o'tkazish va ularga yoshlarni ko'proq jalb etish ayni muddao. Umuman olganda, o'quv yurtlari, oila,

²⁵ O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV Toshkent sh., 2019-yil 15-yanvar, 29-son.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

²⁷ O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV Toshkent sh., 2006-yil 16-fevral, 25-son.

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida yoshlarning uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiyasi borasida samarali tizimni yaratish eng muhim vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarida ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga bag'ishlangan turkum ko'rsatuv, eshittirishlar, ijtimoiy ekologik rolklarni muntazam efigra uzatib borish, vaqti matbuot nashrlarida maqolalar chop etish orqali targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish ham aholining ekologik madaniyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Muxtasar aytganda, jamiyatimizda yoshlarning ekologik tarbiyasi, ekologik madaniyatini yuksaltirishning yo'nalish ishlari ko'p. Eng muhimi, ular hayotimiz asosi bo'lgan tabiat ne'matlarini asrashga xizmat qilsagina, oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishamiz.

Ekologik tarbiya umumiy o'rta ta'lim maktablarida yangidan tuzilgan o'quv rejalari, maxsus dasturlar va metodik tavsiyalar asosida olib borilishi, bu borada biologik va nobiologik fanlar o'rtasidagi doimiy uzviy bog'liqlik asosida darslar o'tilib, tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilishda, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanishi shart.

Ekologik tarbiya olgan mutaxassislarda, tabiat unda bo'lib o'tayotgan voqealar, ekologik o'zgarishlar hamda xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridan chiqayotgan ortiqcha qoldiqlarni qayta ishlash yo'li bilan zararli moddalar miqdorini kamaytirish, tabiatni saqlash borasidagi tajribalarni umumlashtirish va boshqa joylarga ham joriy qilish, tabiiy boyliklardan foydalanishda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, tabiat muhofazasini yuqori darajada olib borishda aholini jalb qila bilish mohirligi bo'lishi kerak. Ekologik tarbiya berish ishlarini turli kasbdagi aholi ichida, tabiat va uning boyliklarini saqlash, e'zozlash, ko'paytirish, ko'kalamzorlashtirish kabi ishlarni amalga oshirishda avloddan-avlodga o'tib kelayotgan yaxshi udum va urf-odatlar, qo'li gul bog'bonlar tajribalaridan keng foydalangan holda olib borish lozim.

Ekologik tarbiyani amalga oshirishda turli aholi guruhlarini muammolarini hal qilish uchun qayta o'qitish kurslari, fakultetlarda "Ekologik ta'lim asoslari", "Tabiat va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish", "Ekologiya va yoshlar tarbiyasi", "Qishloq xo'jaligi ekologiyasi", "Ijtimoiy ekologiya", "Kimyoviy texnologiya", "Kimyo va tabiat" kabi qisqa kurslar ma'lum o'quv dasturlari asosida o'tiladi. Shu bilan bir qatorda turli xo'jalik, korxonalariga ekskursiyalar va tajribali dehqonlar, ishchi, texnik, injenerlar bilan uchraShuvlar tashkil qilib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab, turli guruhlariga tabiatni o'rganish, undagi ekologik salbiy holatlarni tuzatishga qiziqish uyg'otish mumkin.

Ekologik tarbiyani olib borishda ommaviy axborotning roli juda kattadir. Ekologik tarbiya ishlari va uning muhofazasiga oid olib borilganda turli viloyatlar, vodiylar, tog' yon bag'irlari, o'tloqzor, o'rmon, to'qaylardagi ekologik holat haqida axborot berish yo'llari, tabiatda ekologik o'zgarish bo'lgan joydan tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari, ichki ishlar vakillariga suvni to'xtatish, o't o'chirish markazlari, karantin stansiyalariga xabar berishda ommaviy axborotning roli bebahodir.

Ekologiya (yunoncha oykos-uy, turar joy va logos-ta'limot) organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: populyasiyalar; biosenozlar; biogeosenozlar (ekotizimlar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologik fanlar majmui. Ekologiyani organizmlar va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi. "Ekologiya" yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti

va tevarak bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandır.

Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII-XIX asrlarni qamrab oladi. XX asrning boshlarida tadqiqotchi-olimlar tomonidan ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning kishi organizmiga ta'sirini o'rganish natijasida bu fanga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. Jumladan, bu muammo echimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida: "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir" -deb ta'kidlanadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 23-apreldagi «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, o'sha yili «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, Shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi»ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimiz hukumatining g'amxo'rligidan²⁸.

Qadimda ham ekologik muammolarni hal qilishga urinishlar bo'lgan. Ayniqsa, «Avesto»da, Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham ushbu muammolarga e'tibor berib kelingan.

Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'cha va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va Shular asosida litsey va maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining olib borilishi-yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir. Ekologik tarbiya berish, ularda tashqi muhit va vujud orasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qildirish. Yoshlarda ekologik tarbiya berishda ularga tegishli tushuncha va atamalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga singdirish ushbu sohadagi ishimiz samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Ekologik joy eko muhit tabiatda tur yashashi mumkin bo'lgan barcha muhit omillari majmui.

Ekologik krizis-ekologik tanglik-ekologik tizimlar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silkinishi; vulqon otilishi; qurg'oqchilik; shovqin; harorat; dovul; chigirtkalar ofati; yong'in va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat.

Ekologik muvozanat-inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

Ekologik omillar-organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmui.

²⁸ Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV Toshkent sh., 2000-yil 4-mart, 74-son.

Ekologik madaniyat-kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarlik va boshqalar.

Ekologik tanglik xavfi XX asr davomida texnikaning rivoji, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, havoning ifloslanishi, energiya tanqisligi, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ining qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib bormoqda.

O'rta Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko'paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechilishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Ekologik muammolarni hal etish yo'llaridan biri bu tarbiyadir. Yoshlarga ekologik tarbiya berish pedagogika sohasida muhim yo'nalish hisoblanadi. Ekologik ta'lim, o'quvchilarga tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o'qitishdan iborat. Ekologik tarbiya, o'quvchilarning tabiatga nisbatan ongli munosabatlarini tarbiyalashdan iborat. Demak, bundan ekologik ta'lim-tarbiyaning mazmun-mohiyatini quyidagicha ifodalash mumkin, ya'ni ekologik tarbiya umumiy tarbiyaning asosiy va tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning yordamida o'quvchilarda ekologik muammolari echimlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish hamda ularni kelajakda ekologik tarbiyani olib borishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdir.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi esa o'quvchilarda hududlarni muhofaza qilish va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

O'quvchilarga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (hudud tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. Pedagogika fanlari doktori, professor Xudoyqulov Xol Jumayevich o'quvchilardagi ekologik tarbiyani shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berilmog'i lozim:

- tabiatni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo'lishligiga;
- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora-tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish; «suvga tuflama, uni iflos qilma», degan da'vatning mazmun-mohiyatini bilishlikka;

- gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va obod mahalla, obod hudud yaratish.

- ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunga o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

- dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payxon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlarini haqida o'quvchilar ongida tasavvurlarni shakllantirish:

- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan muhosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini o'quvchilar ongiga singdirish:

- zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini o'quvchilar ongiga singdirishning axborot-kommunikatsion texnologiyalarini yaratishga erishish;

- barcha fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyani olib borish:

- sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda eko sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish:

- fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

O'quvchilarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, o'quvchilar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri-biri tomondan-muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan-musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyorumizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida o'quvchilarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi.

XULOSA

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda o'quvchilar barkamol inson bo'lib etishishlari uchun, tabiiy hududlarni muhofaza qilishga doir quyidagi bilimlar tizimini ilmiy-amaliy jihatdan egallashlari zarur:

1. Yashaydigan uyiga doir ekogigiyenik bilim;
2. Mahallaga (qishloqqa) oid ekogigiyenik bilim;
3. Tuman, shahar hayoti bilan bog'liq ekogigiyenik bilim;
4. Respublika hududidagi mavjud ekogigiyenik muammolar tizimi.

va uni qo'riqlash; havo haroratining ko'tarilishi, shamol, yog'in-sochinlar, iqlim o'zgarishi, yerning cheklanganligi, uning sho'rlanishi, cho'llanishi, ifloslanishi, tuproq eroziyasi va uning oldini olish;

Orol va Orol bo'yi muammosi; energiya manbalaridan tejab foydalanish; suv tanqisligi, demografiya, oziq-ovqat tanqisligi, chiqindilar va bular bilan bog'liq ekologik muammolar.

AMALIY TAKLIFLAR

1. O'quvchi-yoshlarni tabiiy xududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishda, tabiat bergan imkoniyatlarni asrash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar yaratish va o'quvchilarning ongli munosabatlarini yo'lga qo'yish tizimini ishlab chiqish va amaliyotda tadbiiq etish.

2. Atmosfera havosining ifloslanishi o'quvchi-yoshlarda bilim sohasini rivojlantirish.

3. Ekologik muammolarning oldidni olish maqsadida o'quvchi-yoshlarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga mos darsdan va sinfdan tashqari ekologik tarbiyaga bag'ishlangan tadbirlar tashkil etish va o'tkazish rejasini ishlab chiqish, amalda doimiy ravishda qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aydarov E.B. O'quvchi yoshlarga tabiiy-hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish. Monografiya. - T.: "Ilm-ziyo-zakovat" nashriyoti, 2019, 120 b.

2. Aydarov E.B. O'quvchi-yoshlarga ma'naviy-ahloqiy tarbiya berish orqali ekologik madaniyatni shakillantirish // Zamonaviy ta'lim, №8 (81). - T., 2019. - B. 60-66. (13.00.00; №10).

3. Aydarov E.B. O'quvchi yoshlarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirishning nazariy asoslari // Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali.-T., 2020. - B. 68-71. (13.00.00; №15).

4. Имомбердиев, С. С. (2023). Экологическое воспитание на уроках математики в средней школе. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(3), 46-52.

5. Imomberdiyev, S. S. (2023). Use of Problems with Ecological Content in Mathematics Lessons in Primary Grades. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 1(7), 36-39.